

Shavkat Mirziyoyev Turkiyaga jo'nab ketdi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining sakkizinchi sammitida ishtirok etish uchun 11-noyabr kuni Turkiyaning Istanbul shahriga jo'nab ketdi.

Sammitda Kengash doirasidagi ko'p tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, savdo, investitsiya, "yashil" iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Muloqot yakunida ko'p tomonlama hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan hujjatlar qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari tashrif doirasida qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham o'tkazadi.



Manba